



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARINING KREATIVLIK FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH

Nurjanova Rayxan Urazbayevna,
Nukus innovatsion instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativlikning mohiyati, shaxsga kreativlik sifatlarining rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillari, tarbiyachi pedagoglarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ta'lim-tarbiya, kreativ yondashuv, kreativ tafakkur, potensial kreativlik, faoliyatdagi kreativlik.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdaǵı PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 9-sentyabrdaǵı PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 30-sentyabrdaǵı PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 8- maydaǵı PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydaǵı 391-son "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 30 avgustdaǵı 155-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'ida belgilab berilgan maktabgacha ta'lim tizimini fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralishi maktabgacha soha yo'nalishida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning pedagogik mahorati va kreativ qobiliyatlariga nisbatan talablarning ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bunday talablarning yuzaga kelishi ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda o'quv-uslubiy jarayonga innovatsiyalarni joriy etish, tarbiyachilarning kreativ potensialini rivojlantirish va pedagogik kompetentlik bilan qurollantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Respublikada keyingi yillarda maktabgacha ta'lim sohasiga qaratilayotgan alohida e'tibor va mazkur yo'nalishda qabul qilingan bir qator hujjatlar ta'lim sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish pedagoglar oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biridir. Bu vazifalari maktabgacha ta‘lim tashkiloti pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va kreativlik talab etiladi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarida kreativ(ijodiy) faolligini rivojlantirish ta‘lim tizimining dolzarb vazifasidir. Endi bizga nostandart qarorlar qabul qila oladigan, ijodiy fikrlay oladigan mutaxassislar zarur.

So‘nggi yillarda pedagogika fani ta‘lim maqsadi sifatida shaxsga nisbatan kamida ikkita vazifani qo‘ydi:

- 1) ijodkor shaxsni tarbiyalash;
- 2) unda o‘z hayotining dizaynerini, alohida tarixiy ijod subyektini tarbiyalash.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ(ijodiy) faoliyatini tashkil etish haqida so‘z ketganda, kreativlik(ijodkorlik)ning o‘zi nima ekanligini aniqlashimiz kerak.

Mavzuning mohiyatidan kelib chiqib aytish joizki, bugungi kunda pedagogik atamalar lug‘atida “kreativ”, “pedagogik kreativlik”, “kreativ qobiliyatlar”, “kreativ kompetentlik” terminlarini juda ko‘p uchratamiz. Ilmiy adabiyotlarda “kreativlik” hamda “kreativ kompetentlik” tushunchalari qo‘llaniladi.

Kreativ tafakkur – bu shaxsning o‘z oldida turgan vazifalarini nostandart hal etish hamda o‘z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaraliroq yo‘llarini topish qobiliyatidir. Ya‘ni kreativlik asosan boshqalarga o‘xshamagan g‘oyalarni o‘ylab topish, an‘ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo‘llarini bilish hisoblanadi. Kreativlik insondagi ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga asos yaratadigan individual sifatlarining hamda fikrlash qobiliyatlarining birligidan iborat bo‘ladi.

Kreativ kompetentlik - ing. «kreative» yaratuvchanlik, ijodkorlik ma‘nosini anglatadi. Kompetentlikning bu turi pedagogning yangilik yaratish, ijodkorlik va tashkil etish singari ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Kreativlik faqatgina yangi g‘oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning turmush tarzi va ma‘naviyatini yuksaltirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Bir qator pedagogik adabiyotlar tahlili va keyingi yillarda ilmiy izlanishlar olib borilgan tadqiqot ishlarida ham “kreativ”, “pedagogik kreativlik”, “kreativ qobiliyatlar”, “kreativ kompetentlik” tushunchalariga atroflicha izoh berib o‘tilgan. “Kreativ yondashuv” tushunchasining



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta‘riflarini keltirish mumkin.

E.P.Torrensning fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning - o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta‘sirchanlik[4.2014].

Kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘lib, bunda kreativlikning intellekt bilan bog‘liqligi masalalari hamda kreativlikning psixologik jihatlari va uning har bir shaxsning individual o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liqligi o‘rganilgan. Masalan, 1950-yillarda J.Gilford va uning tarafdorlari tomonidan intellektual omillarni ta‘limiy yo‘nalishlarda qo‘llash, kreativlik xususiyatlarni o‘rganish hamda baholash masalalari tahlil etilib, natijada 16 gipotetik intellektual qobiliyatlarni ajratib ko‘rsatgan. M.N.Gnatko esa kreativlikning mexanizmlari bo‘yicha izlanishlar olib borgan va ularni quyidagi ikkita turga ajratgan:

- **potensial kreativlik** - bu kreativlikning zaruriy sharti bo‘lib, qanday sharoit bo‘lmasin insonning kreativlikka tayyor turishi, shuning natijasida o‘z g‘oyalarini amalga oshirishidir;

- **faoliyatdagi kreativlik** – bu muayyan bir sohadagi kreativlik hisoblanadi.

J.Gilford kreativlikning belgilarini aniqlagan bo‘lsa, M.N.Gnatko esa kreativlikning komponentlarini umumlashtirgan. Bu esa, bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida har bir pedagog belgilangan ta‘lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo‘lini tanlaydi degan ilmiy xulosaga kelishimizga sabab bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak tarbiyachilarning kreativligini rivojlanish texnologiyasi bevosita innovatsiya asosida amalga oshiriladi, ya‘ni metodlar yangilanadi, tizimli va davomli bo‘ladi, ma‘lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo‘nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi.



«ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИШ СИСТEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN ÍNTEGRACIYASÍ»

atamasındađı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги ПҚ-2707-сон “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизimini янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
2. 2017 йил 9 сентябрдаги ПҚ-3261-сон “Мактабгача таълим тизimini тубдан такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.
3. 2018 йил 30 сентябрдаги ПҚ-3955-сонли “Мактабгача таълим тизimini бошқаришни такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
4. 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори.
5. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сон “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.